





**A. Adler (1870-1937)ning  
Individual psixologiyasi**

- Individning psixik hayotining asosi sifatida teleologik determinatsiya tamoyili.
- A.Adlerning nazariyasida ijtimoiy mayl konsepsiyasi.
- Hukmronlikka ishtiyoq, ustuvorlik, mukammallik .
- Hayotiy reja va yolg'on maqsadlar.





Alfred Adler (1870-1937) individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi.

Uning asosiy asarlari: “Nerv xarakteri haqida”(1912), “Individual psixologiyaning nazariyasi va amaliyoti”(1920”Insonshunoslik”(1927), “Hayotning mazmuni”(1933).



**A.Adlerning shaxs nazariyasi** individual psixologiya sifatida tanilgan. U ham an'anaviy ravishda psixoanalitik yo'nalishga kiradi va u Freydning nazariyasiga qarama-qarshi nazariya sifatida rivojlandi.





**Yetishmovchilik  
hissi**

**To'liqsizlik(no  
rasolik) hissi**

**Superkompensatsiya**

## Yetishmovchilik hissi

A.Adler fanga «**yetishmovchilik hissi**»degan tushunchani kiritdi.

Uning fikricha, bu tuygʻu tabiiy va tugʻma boʻlib, har birimiz uchun xosdir va shaxsning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

A.Adler asosiy hayotiy maqsad individuallikni rivojlantirishni belgilovchi asosiy omil deb hisobladi





Inson o'zidagi barcha imkoniyatlarni ishga solishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi. Adler bu jarayonni **kompensatsiya** yoki **superkompensatsiya** deb atadi. **Superkompensatsiya** — bu yetishmovchilik hissiga bo'lgan tug'ma reaksiyalarning ijtimoiy bir ko'rinishidir. Adlarning fikricha, ana shu tug'ma instinktlar odamni atrofdagilarga tajovuzkor qilib qo'yadi. Shuning uchun ham odamda nevroz rivojlanishining olish uchun undagi yetishmovchilik hissini bartaraf etish zarur.



# To'liqsizlik(norasolik) hissi



Alfred Adlarning individual psixologiyasi og'ishgan xulq psixologik sabablarining ko'plab shakllari tushunishga yordamlashdi. Zaiflik to'laqonli emaslik tuyg'usi sifatida boshdan kechiriladi . To'laqonli emaslik tuyg'usi Adler fikricha, dastlab 4-5 yoshda paydo bo'ladi . Uni ikkita asosiy omillar kuchaytiradi . Birinchidan, tug'ma nuksonlak (sog'likning zaiflashuvi , jismoniy yetish-movchiliklar, o'ta past bo'y), ikkinchidan , bu-bolani oilada noto'g'ri tarbiyalash (o'ta erkalatish, bolaga muhabbatning yetishmasligi ). To'laqonli emaslik tuygusi bolaning muhit talablarini qay darajada uddalashiga qaytma proporsionaldir



To'laqonli emaslik tuyg'usini yengishning ikkita asosiy usuli mavjud: **kompensatsiya** (saqlanganlarini kuchli rivojlantirish hisobiga buzilgan xislatlar ko'rininishini kamaytirish) va **yetishmovchiliklarni yuqori kompensasiyalash** (buzilgan xususiyatni yuqori ishlash darajasigacha kuchaytirilgan mashq olib borish)



# A.Adler nazariyasining asosiy mazmuni quyidagilar bilan bog'liq:

- soxta finalizm;
- ustunlikka (afzallikka) intilish;
- qadrsizlanish va uning o'rnini to'ldirish hissi;
- ijtimoiy qiziqish;
- hayot stili (uslubi);
- kreativ «Men».




**Soxta finalizm** - Adler bo'yicha, insonning asosiy maqsadini, inson yo'nalishini belgilaydigan maqsadini haqiqatda tekshirib bo'lmaydigan-soxta maqsad deb tasavvur qiladi.



**Ustunlikka intilish** - bu oxirgi maqsadning dastlabki sifati hamma odamlar intiladigan afzallikka intilishdir.





**QADRSIZLANISH VA UNING O'RNINI TO'LDIRISH HISSI.**

QADRSIZLANISH HISSI - BU HISSIYOT O'Z IJTIMOYIY YOKI PSIXOLOGIK KAMBAG'ALLIGINI BOSH DAN KECHIRISH BILAN BOG'LIQ YUZAGA KELADI.



**Ijtimoiy qiziqish yoki umumiylik** - bu guruh bilan chiqishish yoki yaxshi muomalada bo'lishni yuzaga keltirish. Bunda odamning o'z shaxsiy qiziqishlarini, ijtimoiy foydali umumiy qiziqishlariga bo'ysundirishi hisoblanadi

# ҲАЁТ УСЛУБИ ВА ШАХС ТИПЛАРИ



**Бошқарувчи тип.** Бу тип инсонлар ўзига ишонган ва ғайратли, аҳамиятсиз социал манфаатларга, агар булар мавжуд бўлмаса. Улар фаол, аммо социал режада эмас, уларга бошқаларнинг бахт-саодати аҳамиятсиз, улар ташқи олам устидан ҳукмронлик қилиш хос. Асосий ҳаётий муаммоларини улар душманлик, антисоциал ҳал этадилар (жиноятчилар, наркоманлар, қонунбузарлар



## ШАХС ТИПИ

**Олувчи тип:** ташқи оламга текинхўрлик ва ўзининг эҳтиёжларининг кўп қисмини бошқалар ҳисобига қондиришга интилувчи одамлар.

Уларда социал манфаатлар йўқ, улар бошқалардан кўпроқ нарса олишга интиладилар. Уларнинг фаоллиги юқори эмас, уларнинг бошқаларга азоб-уқубат келтириш эҳтимоли камроқ.



## ШАХС ТИПИ



**Қочувчи тип:** бу инсонларнинг социал қизиқишлари ,, шахсий муаммоларни ҳал этишдаги мажбурий фаоллиги паст, улар муваффақиятсизликдан қўрқадилар ва ҳаётий муаммоларини ечишдан қочадилар. Улар қийинчилик ёки омадсизлик туғдирадиган барчасидан қочадилар.

## ШАХС ТИПИ

**Социал тип.** Бу етук талабга жавоб берадиган, социал манфаатлар боғлаб туради ва юқори фаолликка эга. Бу инсон бошқа инсонларга ғамхўрлик кўрсатувчи, улар билан муносабатга қизиқувчи, инсонларнинг асосий ҳаётий муаммоларини ҳал этувчи муаммоларни-иш, севги, дўстлик-ҳамкорликни, шахсий мардликни, масъулиятни талаб этишини билади ва бошқа инсонларнинг роҳат-фароғатида ўзининг ҳиссаси кўшишга тайёр.



# Инсон табиати



- ▶ ИНСОН-ЯГОНА ВА ЎЗИНИ ЎЗИ МУВОФИҚЛАШТИРУВЧИ ОРГАНИЗМ;  
INDIVIDUUM (ЛАТ.) — БЎЛИНМАС. ИНСОН ҲАЁТИЙ ФАОЛЛИГИНИНГ ҲЕЧ БИР НАМОЁН БЎЛИШИНИ ИЗОЛЯЦИЯДА КЎРИБ БЎЛМАЙДИ, ЛЕКИН ФАҚАТ ШАХСГА МУНОСАБАТДА ТЎЛИҚ КЎРИБ ЧИҚИШ МУМКИН.
- ▶ • ИНСОН ҲАЁТИ — ШАХС УЧУН АҲАМИЯТЛИ МАҚСАДЛАР ЙЎНАЛИШИДАГИ ЎСИШ ВА РИВОЖЛАНИШГА УЗЛУКСИЗ ҲАРАКАТ ҲАЁТ МАҚСАДЛАРИ ИНСОННИНГ ТАҚДИРИНИ БЕЛГИЛАЙДИ.
- ▶ • Инсон хулқ-атвори-ирсият ва муҳит таъсири натижасигина эмас, балки инсоннинг ўз ҳаётининг архитектори саналган ижод кучидан ҳам иборат

# E'tiboringiz uchun rahmat!

*Ilmdan dilga bir shu'la tushgan on,  
Bilursanki ilm bepoyon.  
Firdavsiy*

